

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISH AHAMIYATI

**Z.G.Allaberganov**

*TDIU dotsenti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish bosqichlarining nazariy asoslari, amaliy yo'nalishlari shu bilan birga iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish, ishlab chiqarish samaradorlini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish va shaffoflikni ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab berildi. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy natijalari ko'rib chiqildi. Tadqiqod natijalari raqamli transformatsiya mamlakat raqobatbardoshligini oshirishda asosiy yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, transformatsiya, samaradorlik, YAIM, elektron hukumat.*

**THE ROLE OF DIGITALIZATION OF UZBEKISTAN'S ECONOMY IN SUSTAINABLE GROWTH**

**Z.G.Allaberganov**

*Associate Professor, Tashkent State University of Economics*

**Annotatsion.** *This article analyzes the theoretical foundations and practical directions of the digitalization stages of Uzbekistan's economy, as well as its impact on economic growth. The study substantiates that the introduction of digital technologies into various sectors of the economy plays a crucial role in increasing production efficiency, reducing transaction costs, and ensuring transparency. Furthermore, the economic outcomes of the reforms implemented within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy are examined. The research findings indicate that digital transformation serves as a key driver in enhancing the country's competitiveness and achieving sustainable economic growth.*

**Keywords** *digital economy, innovative development, transformation, efficiency, GDP, e-government.*

**1. Kirish**

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanish sur'ati jahon iqtisodiyotning tuzilmasini o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish bosqichlari, moliyaviy operatsiyalar, savdo tizimlari va davlat boshqaruv sohasiga chuqur kirib bormoqda. Natijada "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Mamlakatda elektron hukumat tizimi, onlayn davlat xizmatlari, raqamli bank tizimi va elektron savdo platformalari faol o'sib bormoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayoning iqtisodiy o'sishga ta'sirini ilmiy tarafdin tahlil qilish va uning istiqbollarini baholashdan iborat.

## 2. Adabiyotlar tahlili

Tapscott (1995) Raqamlashtirish tushunchasi XX asr oxirida ilmiy adabiyotlarda keng o'rin oldi. Avvaliga informatsion texnologiyalarni (IT) iqtisodiyot jarayonlariga tatbiq etish darajasi sifatida ko'rilgan bo'lsa, keyinchalik butun iqtisodiy tizimni transformatsiya qiluvchi strategik omil sifatida baholagan.

Negroponte (1995) raqamli iqtisodiyotni "axborot va xizmatlar asosida yaratadigan iqtisodiyot" deb atagan. Bu yondashuv raqamlashtirishni ishlab chiqarish jarayonlaridan tashqari, xizmatlar, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarga ham tatbiq etadi.

Jahon banki World Bank (2023) tadqiqotlari raqamli infratuzilma (internet qamrovi, mobil aloqa) o'sish sur'atlarini oshiruvchi omil ekanini ko'rsatadi. Xususan, internet penetratsiyasining 10% ga oshishi YAIM o'sishini 1–1.5% ga kuchaytiradi.

## 3. Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda raqamlashtirishning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash uchun analiz, sintez, moliyaviy tahlil, statistic tahlil va kompleks metodologik yondashuv qo'llaniladi. Tadqiqot usullari nazariy, empirik va iqtisodiy-statistik metodlarni o'z ichiga oladi.

## 4. Muxokama va natijalar

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy faoliyatda axbarot texnologiyalari va internet tarmog'idan keng foydalanishni anglatadi va raqamli taxnologiyalar mehnat unumdorlini oshirishga xizmat qilmoqdi. Avtomatlashtirish jarayonlarida inson omiliga bog'liq xatolar kamaytiradi hamda ishlab chiqarish tezligi oshiradi. Bundan tashqari, ma'lumotlar bazasining kengayishi orqali tahliliy qarorlarni qabul qilish sifatini yaxshilaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik, balki institutsional o'zgarishlarni ham talab qiladi. Qonunchilik bazasini yanada yaxshilash, kiberxavfsizlikni ta'minlash va malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi davr mobaynida mamlakatda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilinib, iqtisodiyotning turli sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Davlat xizmatlarining katta qismi elektron shaklga o'tkazildi.

Elektron hukumat tizimi orqali alohida ko'rsatiladigan xizmatlar soni oshdi. Bu esa byurokratik to'siqlarni kamaytirib, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bank-moliya tizimida mobil banking va onlayn to'lov tizimlari jadval rivojlanmoqda.

Internet foydalanuvchilari sonining oshishi elektron savdo hajmining ko'payishiga olib kelgan. Bu esa ichki bozor faolligini kuchaytirib, kichik biznes subyektlari uchun yangi

imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Elektron hujjat aylanishi vaqt va resurslarni tejaydi. Onlayn savdo platformalari esa mahsulotlarni tezkor realizatsiya qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi YAİM o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli raqamlashtirish jarayoni barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida ayrim muammolar ham bor. Jumladan, hududlar o'rtasida internet infratuzilmasining rivojlanish darajasi turlichadir.

Kiberxavfsizlik masalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Kelgusida raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish, IT-mutaxassislar tayyorlash va xalqaro tajribani o'rganish zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt va "big data" texnologiyalaridan keng foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

## 5. Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayoni mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynayni. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, shaffoflikni ta'minlayni hamda xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Kelgusi raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish va innovatsion muhitni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi.
2. Jahon banki. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha tahliliy hisobotlar.
3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlari
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisobotlari.
5. Joseph Schumpeter The theory of economic development: An inquiry into profits, capital, credit, interest, and the business cycle. Harvard University Press. 1934.
6. Don Tapscott The digital economy: Promise and peril in the age of networked intelligence. McGraw-Hill. 1995